



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration — MBA)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business
Administration — MBA)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ISLAMKULOV ALIMNAZAR XUDJAMURATOVICH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: JYOTI MESHGRAM

Team university

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260128
Xulosa raqami	1433
Xulosa sanasi	08.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"XALQARO NORDIK UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Chust ko'chasi, 17-uy. Litsenziya: № 1569217, 08.08.2022. Guvohnoma: MAS № 0000412, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Biznesni boshqarish (Master of Business Administration — MBA)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70410901
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1569217, 08.08.2022
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70410901 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration — MBA)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70410901 – Master of Business Administration
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70410901 – Управление бизнесом
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, ingliz
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat tomonidan tan olinadigan diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	300 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Sebzor ko'chasi, 22a-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvoqif / muvoqif emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvoqif / qisman muvoqif / muvoqif emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Mazkur bobda 70410901 – “Biznesni boshqarish (MBA)” magistratura ta'lim dasturini boshqarishning tashkiliy asoslari, ichki sifatni ta'minlash tizimi hamda strategik rivojlantirish mexanizmlarining holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi institutsional darajada shakllantirilgani, vakolat va mas'uliyatlar aniq taqsimlangani hamda ichki me'yoriy hujjatlar asosida samarali boshqaruv tizimi yo'lga qo'yilganini tasdiqladi. Ichki sifatni ta'minlash, muntazam monitoringni amalga oshirish va ta'lim dasturini takomillashtirish jarayonlariga manfaatdor tomonlarning faol jalb etilgani, shuningdek strategik rivojlantirish mexanizmlarining izchil faoliyat yuritayotgani kuzatildi. MBA magistratura dasturining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, biznes hamjamiyati, ish beruvchilar va amaliyotchi mutaxassislar bilan uzluksiz hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ularning fikr-mulohazalarini ta'lim dasturi mazmuniga muntazam integratsiya qilish dasturning dolzarbligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarning bajarilayotganini e'tirof etdi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Mazkur bobda 70410901 – “Biznesni boshqarish (MBA)” magistratura ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi hamda amaldagi me'yoriy talablarga muvofiqligi baholandi. O'rganilgan hujjatlar ta'lim dasturi ish beruvchilar, professor-o'qituvchilar, talabalar, bitiruvchilar hamda sohaviy mutaxassislarning faol ishtiroki bilan belgilangan tartibda ishlab chiqilganini tasdiqladi. Dastur 120 kredit hajmidagi ikki yillik magistratura ta'limi shaklida tashkil etilgani, uning maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda bitiruvchilarda shakllantirilishi nazarda tutilgan boshqaruv

kompetensiyalari Milliy malakalar ramkasining magistratura darajasi talablariga muvofiq belgilanganligi, shuningdek ta'lim jarayoni o'zbek va ingliz tillarida olib borilishi e'tirof etildi. MBA dasturining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, strategik menejment, moliya va marketing modullarini real biznes-keyslar, amaliy vaziyatlar hamda zamonaviy boshqaruv amaliyoti bilan uzviy bog'lash magistrantlarning strategik fikrlash, tahliliy yondashuv va boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari ta'lim dasturi mazmunining belgilangan akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga muvofiq shakllantirilganini tasdiqladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Mazkur bobda o'quv jarayonini tashkil etish, ishchi o'quv rejalari, fan dasturlari, sillabuslar hamda magistrantlarning bilimini baholash tizimining holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar o'quv jarayoni amaldagi davlat talablari hamda ta'lim dasturining maqsad va vazifalariga muvofiq tashkil etilganini, ishchi o'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslar kutilayotgan ta'lim natijalariga yo'naltirilgan holda ishlab chiqilganini tasdiqladi. Nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar, biznes-keyslar, loyiha ishlari va tahliliy mashg'ulotlar bilan integratsiyalash orqali magistrantlarning kasbiy va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgani kuzatildi. Talabalar bilimini baholash mezonlarining shaffofligi ta'minlangani, akademik halollik tamoyillarini qo'llashga oid samarali mexanizmlar joriy etilgani hamda baholash jarayoni belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilayotgani e'tirof etildi. MBA magistratura dasturining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, yakuniy loyiha-dissertatsiya ishini real biznes muammolarini tahlil qilish va ularning amaliy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirish magistrantlarda strategik fikrlash va boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlari mazkur yo'nalishda o'quv jarayoni va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda tashkil etilganini qayd etdi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Mazkur bobda magistrantlarni o'qishga qabul qilish, ularning akademik faoliyatini boshqarish hamda qo'llab-quvvatlash tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimi milliy akkreditatsiya talablari asosida shakllantirilganini, qabul talablari aniq belgilanganini hamda qabul

jarayonlari ochiqlik, shaffoflik va teng imkoniyatlar tamoyillari asosida amalga oshirilayotganini tasdiqladi. Magistrantlar harakatini boshqarish, murojaatlar bilan ishlash, akademik masalalarni tartibga solish hamda ularga zarur axborot, akademik va tashkiliy ko'mak ko'rsatish mexanizmlarining belgilangan tartibda faoliyat yuritayotgani kuzatildi. MBA magistratura dasturining o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, mehnat faoliyatini olib borayotgan magistrantlar uchun moslashuvchan o'quv jadvalini tashkil etish, individual maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish va akademik konsultatsiyalarni muntazam taqdim etish ta'lim sifatini oshirish hamda magistrantlarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari talabalar faoliyatini tashkil etish belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga muvofiq yo'lga qo'yilganini e'tirof etdi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Mazkur bobda 70410901 – “Biznesni boshqarish (MBA)” magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun shakllantirilgan inson resurslari salohiyati, professor-o'qituvchilar tarkibi hamda kadrlarni rivojlantirish tizimining holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan inson resurslari tizimi milliy akkreditatsiya talablari asosida shakllantirilganini, yuqori malakali professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi ta'lim dasturi ehtiyojlariga mos ravishda faoliyat yuritayotganini tasdiqladi. Professor-o'qituvchilarning kasbiy va ilmiy salohiyatini rivojlantirish, malaka oshirish hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mexanizmlarining izchil yo'lga qo'yilgani, ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuv mavjudligi kuzatildi. MBA magistratura dasturining amaliy yo'nalishini inobatga olgan holda, korporativ sektor rahbarlari, biznes amaliyotchilari va tajribali menejerlarni o'quv jarayoniga keng jalb etish magistrantlarda zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirish hamda ta'lim dasturining amaliy qiymatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha mavjud kadrlar salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur talablarni ta'minlayotgani o'z tasdig'ini topdi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Mazkur bobda 70410901 – “Biznesni boshqarish (MBA)” magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik baza, o'quv infratuzilmasi,

axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli ta'lim muhitining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar va mavjud sharoitlar zamonaviy auditoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, ixtisoslashtirilgan o'quv maydonlari, raqamli ta'lim muhiti hamda Axborot-resurs markazi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur talablarga muvofiq shakllantirilganini tasdiqladi. Magistrantlarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur o'quv-uslubiy va elektron resurslardan foydalanish imkoniyati yaratilgani, raqamli platformalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil qo'llanilishi ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qilayotgani kuzatildi. MBA magistratura dasturining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, key-metod, guruh ishlari va interaktiv muhokamalarni samarali tashkil etishga moslashgan auditoriya muhitini yanada rivojlantirish magistrantlarda strategik fikrlash, jamoaviy ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha moddiy-texnik ta'minot tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv elementlarini kengaytirish imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.
- ✓ Ichki monitoring natijalarini aks ettiruvchi hisobotlarni standartlashtirish zarurati mavjud.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Ichki monitoring hisobotlarini standartlashtirish va boshqaruv qarorlari ijrosini baholab borish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Xalqaro Nordik universitetida 70410901 – “Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA)” magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, boshqaruv tizimi, inson resurslari hamda moddiy-texnik infratuzilmaning holati kompleks ravishda baholandi. O'rganish davomida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari samarali shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayonida shaffof baholash tizimi va akademik halollik tamoyillari izchil qo'llanilayotgani tasdiqlandi. Shuningdek, magistrantlarni qabul qilish va ularni akademik hamda tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan tartiblar asosida yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi ta'lim dasturi talablariga mosligi hamda keys-metod va guruh ishlari uchun moslashtirilgan auditoriya muhiti, zamonaviy raqamli resurslar va o'quv infratuzilmasining mavjudligi ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilganini namoyon etdi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi bo'yicha ko'rib chiqilgan barcha 6 bob va 27 ta mezon belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga to'liq muvofiq deb topildi. Bildirilgan tavsiyalar mavjud faoliyatni yanada takomillashtirish va ta'lim sifatini izchil rivojlantirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ular ta'lim dasturining umumiy bahosiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari 70410901 – “Biznesni boshqarish (Master of Business Administration – MBA)” magistratura ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga to'liq javob berishini hamda uni samarali amalga oshirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilganini tasdiqlaydi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

